



## NAMANGAN VILOYATI MINGBULOQ TUMANI HOKIMINING QARORI

2024-yil 24-sentabr

485-6-81-Q/24

Mingbuloq tumani hokimligi

**Namangan viloyati hokimining 2024-yil 23-sentabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Suv havzalarida motorli (ichki yonuv dvigatelli) va elektromotorli suv transporti vositalaridan foydalanish tartibini yanada takomillashtirish hamda fuqarolar xavfsizligini ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2024-yil 4-sentabrdagi 540-son qarori ijrosi to‘g‘risida”gi 437-6-0-Q/24-sonli qarori haqida**

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Suv havzalarida motorli (ichki yonuv dvigatelli) va elektromotorli suv transporti vositalaridan foydalanish tartibini yanada takomillashtirish hamda fuqarolar xavfsizligini ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2024-yil 4-sentabrdagi 540-son qarori va Namangan viloyat hokimining 23 iyuldagi 437-6-0-Q/24-son qarorida belgilangan vazifalarni tumanda ta’minlash maqsadida, O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6 va 25-moddalariga asosan,

### **QAROR QILAMAN:**

1. Namangan viloyati hokimining 2024-yil 23-sentabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Suv havzalarida motorli (ichki yonuv dvigatelli) va elektromotorli suv transporti vositalaridan foydalanish tartibini yanada takomillashtirish hamda fuqarolar xavfsizligini ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2024-yil 4-sentabrdagi 540-son qarori ijrosi to‘g‘risida”gi 437-6-0-Q/24-sonli qarori ijro uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining mazkur qarori bilan shunday tartib o‘rnatilganki, unga muvofiq:

a) 2025-yil 1-maydan boshlab tabiiy va sun’iy suv havzalarida:

faqat tezlikni avtomatik pasaytirish uskunasi bilan jihozlangan (harakatlanish maksimal tezligi 40 km/soatdan oshmaydigan motorli qayiqalar bundan mustasno), GPS uskunasi o‘rnatilgan hamda milliy GPS monitoring va navigatsiya tizimiga ulangan motorli (ichki yonuv dvigatelli) va elektromotorli suv transporti vositalaridan (keyingi o‘rinlarda – suv transporti vositalari) foydalanishga ruxsat etilishi;

suv transporti vositalarining ruxsat etilgan harakatlanish maksimal tezligi 40 km/soat, kemalar to‘xtash joylari hamda aholi turar joylari chegaralarida – 20 km/soat, shuningdek, plyajlar va aholining ommaviy dam olish joylari chegaralarida – 5 km/soat etib belgilanishi;

b) 2025-yil 1-yanvardan boshlab yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan suv transporti vositalaridan (bundan elektromotorli suv transporti vositalari mustasno) foydalanish natijasida atrof tabiiy muhit ifloslantirilganligi uchun quyidagi miqdorlarda yillik kompensatsiya (keyingi o‘rinlarda – kompensatsiya) to‘lovlari undirilishi:

motorli qayiqlar va gidrotsikllar uchun bazaviy hisoblash miqdorining 10 baravari;

kater uchun bazaviy hisoblash miqdorining 15 baravari;

yaxtalar uchun bazaviy hisoblash miqdorining 25 baravari;

v) motorli (ichki yonuv dvigatelli) suv transporti vositalari (shu jumladan foydalanishda bo'lgan) kompensatsiya to'langanligini tasdiqlovchi hujjat taqdim etilganidan so'ng yillik texnik ko'rikdan o'tkazilishi;

g) kompensatsiya undirishdan tushgan mablag'lar O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligining Ekologiya jamg'armasiga o'tkaziladi hamda suv havzalari ifloslanishining oldini olish bo'yicha chora-tadbirlarni moliyalashtirishga yo'naltirilishi;

ushbu band talablari maxsus vazifalarni bajarish vakolatiga ega bo'lgan vazirlik va idoralarning suv transporti vositalariga nisbatan tatbiq etilmasligi;

O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi Raqamli texnologiyalar vazirligi va Transport vazirligi bilan birgalikda uch oy muddatda tabiiy va sun'iy suv havzalarida suv transporti vositalari tezligini chegaralovchi va oraliq masofani nazorat qiluvchi hamda quyidagi texnik imkoniyatlarni nazarda tutuvchi dasturiy ta'minot ishlab chiqilishini tashkil etishi:

suv transporti vositalarining ruxsat etilgan harakatlanish maksimal tezligini 40 km/soatdan, kemalar to'xtash joylari hamda aholi turar joylari chegaralarida 20 km/soatdan, plyajlar va aholining ommaviy dam olish joylari chegaralarida - 5 km/soatdan oshib ketmasligini ta'minlash;

motorli (ichki yonuv dvigatelli) va elektromotorli suv transporti vositalari birbiriga 150 metrdan kam masofaga yaqinlashgan va harakatlanish geozonasidan chiqqan va qirg'oq hududiga kirgan vaqtda ularning tezligini avtomatik ravishda 5 km/soatgacha kamaytirish (maxsus xizmat kemalari bundan mustasno);

O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi Raqamli texnologiyalar vazirligi, Transport vazirligi hamda Kadastr agentligi bilan birgalikda tabiiy va sun'iy suv havzalarida:

a) uch oy muddatda:

xizmat ko'rsatuvchi suv transporti vositalari elektron onlayn nazoratini yo'lga qo'yishi;

suv transporti vositalari har bir turi uchun ruxsat etilgan harakatlanish geozonalarini belgilashi va ularda harakat tartibini ishlab chiqishi;

b) suv havzalaridan foydalanuvchilar tomonidan akvatoriyalarning qirg'oq chiziqlarini belgilagan holda, to'siq belgilari (buylar) bilan ta'minlanishini qat'iy nazoratga olishi;

v) tadbirkorlar tomonidan tashkil etilayotgan plyaj va suv obyektlarida dam olish maskanlarini hamda suv transporti vositalari turadigan bazalarning qonunchilik talablari asosida tartibga solinishini va suv havzalarining zarur navigatsiya belgilari bilan jihozlanishini nazorat qilishi;

O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi, Favqulodda vaziyatlar vazirligi, Suv xo'jaligi vazirligi hamda Transport vazirligi Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari bilan birgalikda motorli (ichki yonuv dvigatelli) suv transporti vositalarini "Sardoba" suv ombori va

“Aydar-Arnasoy” ko‘llar tizimiga keng jalb etish bo‘yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqishi va tadbirkorlar o‘rtasida targ‘ibot ishlarini amalga oshirishi;

O‘zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi:

suv obyektlarida suv transporti vositalaridan xavfsiz foydalanish sohasida davlat nazorati samaradorligini oshirish uchun Kichik hajmli kemalar inspeksiyasini maxsus jihozlar, gidrotsikl va katerlar bilan ta‘minlash choralari ko‘rishi;

Kichik hajmli kemalar inspeksiyasiga yuklangan vazifalarning samarali bajarilishini ta‘minlash maqsadida Vazirlikning umumiy shtatlar soni va pul ta‘minoti doirasida Kichik hajmli kemalar inspeksiyasining shtat birliklarini qayta ko‘rib chiqishi;

suv transporti vositalarini boshqarish yuzasidan kema haydovchilarini tayyorlash va qayta tayyorlash ishlarini jadallashtirishi;

O‘zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligining Kichik hajmli kemalar inspeksiyasini gidrotsikl, kater, maxsus jihozlar va qutqaruv anjomlari bilan ta‘minlash rejasi 1- ilovaga muvofiq tasdiqlanganligi;

Bunda ushbu ilovada ko‘rsatilgan gidrotsikl, kater, maxsus jihozlar va qutqaruv anjomlari xaridi bilan bog‘liq xarajatlar Favqulodda vaziyatlar vazirligiga O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va Hukumati tomonidan tasdiqlangan dasturlar ijrosi uchun ko‘zda tutilgan mablag‘lar hisobidan amalga oshirilishi;

Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasida turizm sohasini tiklash va rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlarni yaratish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2020-yil 10-iyuldagi 433-son qaroriga 2-ilovaga muvofiq o‘zgartirish kiritilganligi ma‘lumot uchun qabul qilinsin.

3. Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi tuman bo‘limi (A.Karimov), Favqulodda vaziyatlar tuman bo‘limi (D.Mamajonov) tegishli tashkilotlar bilan birgalikda motorli (ichki yonuv dvigatelli) suv transporti vositalarini “Sardoba” suv ombori va “Aydar-Arnasoy” ko‘llar tizimiga keng jalb etish bo‘yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqsin va tadbirkorlar o‘rtasida targ‘ibot ishlarini amalga oshirsin.

4. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish tuman hokimining o‘rinbosari X.Boylarov zimmasiga yuklansin.

**Tuman hokimi**



**A.Mansurov**